

## Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoati zonalarini rivojlantirish masalalari muhokama qilindi

---



**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizdagi erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligi tahliliga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi.**

Yig'ilishda O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri va uning o'rinbosarlari, Prezidentning davlat maslahatchilari, tegishli vazirlik, idora va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar rahbarlari ishtirok etdi.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarga xorijiy, avvalo, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish, davlat mulki xususiylashtirilgan ob'ektlar bazasida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, viloyat, tuman va shaharlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha ko'plab vazifalar belgilangan. Mamlakatimizda erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar va kichik sanoat zonalarini samaradorligini oshirish, yangilarini tashkil etish borasida amalga oshirilayotgan ishlar bunda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Davlatimiz rahbarining 2016 yil 26 oktyabrdagi "Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoniga muvofiq ushbu zonalar uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratildi.

Bugungi kunda mamlakatimizda 14 ta erkin iqtisodiy zona faoliyat yuritmoqda. "Navoiy", "Angren", "Jizzax", "Urgut", "G'ijduvon", "Ko'qon" va "Hazorasp" erkin iqtisodiy zonalarida umumiy qiymati 486 million dollarga teng 62 loyiha amalga oshirilgan, 4,6 mingdan ortiq ish o'rni yaratilgan.

Yig'ilishda bu ko'rsatkichlar qoniqarli emasligi, uni yanada oshirish uchun tartib-taomillarni soddalashtirish, investor va tadbirkorlarni jalb etishni kengaytirish zarurligi ta'kidlandi.

Prezidentimiz topshirig'iga asosan erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini amalga oshirishni jadallashtirish, xorijdan yuqori texnologik uskunalar xarid qilish uchun O'zbekiston tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'i hisobidan 100 million dollar miqdorida chet el valyutasidagi kredit liniyasi ochilgan.

Farmatsevtika sohasiga ixtisoslashgan "Nukus-farm", "Zomin-farm", "Kosonsoy-farm", "Sirdaryo-farm", "Boysun-farm", "Bo'stonliq-farm", "Parkent-farm" singari 7 yangi erkin iqtisodiy zonani rivojlantirish bo'yicha izchil ishlar olib borilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahri tumanlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarga tashriflari chog'ida bo'sh turgan yoki samarasiz ish yuritayotgan ishlab chiqarish binolarini borib ko'rdi. Ulardan samarali foydalanish, yangi korxonalar tashkil etishni rag'batlantirish maqsadida ushbu binolar negizida kichik sanoat zonalari tashkil etildi. Mamlakatimizdagi kichik sanoat zonalari 96 taga yetdi.

Bugungi kungacha ushbu hududlarda umumiy qiymati 535 milliard so'mga teng 1021 loyiha amalga oshirilgan. Yangi korxonalar ishga tushishi tufayli 9,6 mingdan ziyod ish o'rni yaratilgan. Loyihalar doirasida nafaqat ichki, balki tashqi bozorda ham xaridorgir bo'lgan yengil sanoat, kimyo, oziq-ovqat mahsulotlari, elektr texnikasi buyumlari, zamonaviy qurilish materiallari, mebel va boshqa tayyor mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda.

Bundan tashqari, 248 loyihani amalga oshirish natijasida 11 ming yangi ish o'rni yaratish rejalashtirilmoqda.

Yig'ilishda kichik sanoat zonalarining sarmoyalarni jalb qilish, tadbirkorlikni rivojlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish va aholi farovonligini oshirishdagi ahamiyati xususida alohida to'xtalib o'tildi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tegishli vazirlik, idora va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning bu sohadagi faoliyatini tanqid qilib, ularda tashabbuskorlik yetishmasligi, erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarini rivojlantirish bo'yicha ishlarni tashkil qilish darajasi sustligini ta'kidladi.

Xususan, mas'ul vazirlik va idoralar tomonidan loyihalarni ko'rib chiqish va muvofiqlashtirish jarayoni murakkabligicha qolib, odatda rasmiy xarakter kasb etmoqda. Erkin iqtisodiy zona qatnashchilariga yer uchastkalari ajratish masalalarini hal etishda hanuz byurokratizm asoratlari saqlanib qolmoqda.

"Urgut", "Ko'qon", "G'ijduvon" va "Hazorasp" erkin iqtisodiy zonalari, shuningdek, farmatsevtika yo'nalishidagi erkin iqtisodiy hududlarda yangi korxonalar tashkil etish uchun xorijiy sarmoyalarni jalb qilish ishlari sust bormoqda. Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarini elektr energiyasi, tabiiy gaz, suv va boshqa kommunikatsiya tarmoqlari bilan barqaror ta'minlashda muammolar kuzatilmoqda.

Davlatimiz rahbari erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalaridagimavjud kamchiliklarni bartaraf etish, investor va tadbirkorlarga yanada keng imkoniyatlar

yaratishga oid kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish bo'yicha topshiriqlar berdi.

Avvalo, ushbu zonalar faoliyatini rivojlantirishga doir me'yoriy-huquqiy bazani qayta ko'rib chiqish, bugungi zamon talablariga moslashtirish, barcha uchun ochiq va tushunarli mexanizm yaratish zarurligi ta'kidlandi.

Yer uchastkalari, bo'sh turgan binolarni ajratish tartibini soddalashtirish masalasiga ham alohida e'tibor qaratildi. Xususan, erkin iqtisodiy zonalarda amalga oshiriladigan loyihalar Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ma'muriy kengash tomonidan ko'rib chiqiladi. Shu paytgacha bu kengash 17 ta vazirlik va idoradan iborat edi. Prezidentimiz ko'rsatmasiga muvofiq ularning soni 4 ta etib belgilandi.

Shuningdek, iqtisodiy zonalarda joylashtirish uchun investitsiya loyihalarini tanlab olish mezoni qayta ko'rib chiqiladi, erkin iqtisodiy zona ishtirokchilarini kreditlash sharoitlarini yaxshilash hamda muhandislik ta'minoti vositalari bilan ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar qabul qilinadi.

Shu jihatdan, yig'ilish davomida erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarida joylashgan korxonalarini barcha zarur muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari va infratuzilma bilan o'z vaqtida ta'minlash bo'yicha topshiriqlar berildi.

[president.uz](http://president.uz)